

**YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA  
MILLIY QONUNCHILIK.**

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri IIV  
Qashqadaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani o`qituvchisi  
Norbo`tayeva Saodat Rashidovna.*

**Annotatsiya:** *Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda milliy qonunchilikka oid malumotlar berilgan.*

**Kalit so`zlari:** Konstitutsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, inson, davlat, islohat, huquq, qonun ustivorligi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning zamirida yosh avlodlarni komil inson qilib tarbiyalash, davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan bir vaqtda ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, milliy qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo`lib qolmoqda. Buning uchun avvalombor ularni ta`lim tarbiyasi, huquqiy savodxonligini oshirish davlatimizning ta`lim sohasini isloh qilish, kadrlar tarkibini shakllantirish kabi bir qancha ustuvor vazifalarni bajarishni talab qiladi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurush va huquqiy demokratik davlat barpo etish huquqiy tafakkur, yoshlarning siyosiy va huquqiy dunyoqarashlarini, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish bilan bog`liqdir.

Mustaqil O`zbekistonning rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda ularning huquqiy ongini rivojlantirishda huquqning o`rni beqiyos. Huquq ijtimoiy hodisa sifatida inson ongidan tashqarida rivojlanmaydi. Huquq va ong o`rtasidagi bog`liqlik huquqiy ongning shakllanishiga sabab bo`ladi. Huquqning tartibga solish tizimi inson ongida huquq, erkinlik, majburiyat, javobgarlik degan tushunchalarni aniqlab beradi.

Huquqiy ong inson tafakkurida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, axloqiy shakllarni yuzaga keltiradi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning shunday sohasiki uning zamirida taassurot, tushuncha, fikr, kabi jarayonlar shakllanib qolmasdan, balki huquqiy tizimning sud organlarining, adliya organlarining, ichki ishlar organlarining, prokuratura va boshqa sohalar kabi tushunchalari yuzaga keladi.

Shunday ekan, yoshlar odob axloqiga singib ketadigan, xilma-xil huquqiy hodisalarga jamiyat a`zolarining munosabati, huquq to`g`risidagi tushunchalar va huquqiy bilim o`ylaganimizdek shakllanadi.

Hammamizga ma`lumki har bir yoshning hayoti alohidadir. Bir shaxsda huquqiy bilm olish imkoniyati katta bo`lsa, boshqa insonda kamroq bo`ladi. Birinchisining huquqiy ong darajasi yuqariroq bo`lsa, ikkinchisniki pastroq bo`ladi. Shunday ekan shaxsiy huquqiy ong har xil rivojlanish darajasiga ega

bo`ladi, Jamiyatda inson ohgini rivojlantirish huquqiy madaniyatning axborat olishiga bog`liq bo`ladi. Yosh avlodga berilayotgan har bir huquqiy axborat ularning jamiyatda olib borilayotgan huquqiy islohatlarda faol ishtirok etishini talab qiladi. Mamlakatimizdagi davlat –huquqiy voqeliklari tizimida 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni muhokamasida o`z fikr va takliflari bilan ishtirok etgan yosh avlodimiz nechog`lik huquqiy madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etdilar. Ular jamiyatimizning har bir sohasini isloh qilishga qaratilgan normalarning inson huquqlari va erkinliklariga xizmat qilishini teran anglagan xolda muhokamalarda o`z fikrlarini barilla ayta oldilar

Bu borada jamiyatimizda yoshlarga berilayotgan huquqiy tarbiya ular o`rtasida muayyan huquqiy madaniyat shakllanayotganligidan darak beradi. Shu bois huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning muayyan huquqiy bilim darajasiga ega bo`lishiga erishilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil davlatimiz rivojlanishining istiqboli har tomonlama bilimli yoshlar qo`lidadir. Buning uchun yoshlarimiz yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo`lishlari, huquqni puxta bilishlari, davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiya
2. O`X Muxamedov. Huquqshunoslik asoslari. Darslik. Toshkent -2020.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent-2010.